QMMB: 10/25/3515-1/0904-son
08.10.2025-y

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3515-1
2025 - yil 06 - Oktabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TAʼLIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING QARORI

# Xorijiy tillar va umumtaʼlim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar roʻyxatiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF–134-son “2022 – 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ–200-son “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-apreldagi 4-q/q-son va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 2-apreldagi 3-mh-son qarori (roʻyxat raqami 3515, 2024-yil 29-may) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.05.2024-y., 10/24/3515/0376-son) bilan tasdiqlangan Xorijiy tillar va umumtaʼlim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar roʻyxatiga ilovaga muvofiq oʻzgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin

2. Mazkur qaror Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan.

3. Ushbu qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

| | |
|---|---|
| Vazir<br>02-Sentabr 2025-yil<br>48-Q/Q-son | SHARIPOV KONGRATBAY AVEZIMBETOVICH |
| Vazir<br>29-Avgust 2025-yil<br>8-mh-son | KARIMOVA E’ZOZXON GAPIRJONOVNA |

Kelishildi:

| | |
|---|---|
| Vazir<br>19-Avgust 2025-yil | KUCHKAROV DJAMSHID ANVAROVICH |

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 2-sentabrdagi 48-q/q-son va Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligining 2025-yil 29-avgustdagi 8-mh-son qaroriga ILOVA

**Xorijiy tillar va umumtaʼlim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar roʻyxatiga kiritilayotgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar**

1. 1-bobda:

4-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4. | Cambridge English Qualifications | A1<br>Movers | A2<br>Key<br>(120–139) | B1<br>Preliminary<br>(140–159) | B2<br>First<br>(160–179) | C1<br>Advanced<br>(180–199) | C2<br>Proficiency<br>(200–230) |

”;

quyidagi mazmundagi $6^1 – 6^3$-pozitsiyalar bilan toʻldirilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $6^1$. | Aptis ESOL for Teachers | A1 | A2 | B1 | B2 | C1 | |
| $6^2$. | Aptis ESOL Advanced | | | B1 | B2 | C1 | C2 |
| $6^3$. | Cambridge Linguaskill | | | B1 | B2 | C1 | C2 |

”;

quyidagi mazmundagi $14^1$-pozitsiya bilan toʻldirilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $14^1$. | TELC | Deutsch A1 | Deutsch A2 | Deutsch B1 | Deutsch B2 | Deutsch C1 | Deutsch C2 |

”;

izoh qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Izoh:

1) ta’lim sohasida xizmat ko‘rsatuvchi vakolatli xalqaro tashkilotlarning rasmiy ro‘yxatidan o‘tgan test markazlariga (authorized test centers) tashrif buyurmasdan, tashkilot vakillarining bevosita nazorati ostida imtihonni topshirmasdan, masofadan olingan sertifikatlar (Remote, Home Edition va boshqa turdagi sertifikatlar) uchun ustamalar qo‘llanilmaydi hamda ushbu sertifikatlar umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’limga kirishda va ishga qabul qilishda tan olinmaydi;

2) umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’limga kirishda, ishga qabul qilishda hamda ustamalar belgilashda amal qilish muddati cheklanmagan (belgilanmagan) sertifikatlar ushbu sertifikat olingan kundan boshlab uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga amal qiladi;

3) mazkur qaror kuchga kirgunga qadar olingan sertifikatlar ularning olingan kunidan boshlab amal qilish muddati tugagunga (muddati cheklanmagan (belgilanmagan) sertifikatlar uchun sertifikat olingan kundan boshlab uch yildan ko‘p bo‘lmagan vaqt mobaynida) qadar bo‘lgan muddatda o‘qish va ishga qabul qilishda, shuningdek ustamalar to‘lashda inobatga olinadi;

4) 2025-yil 3-oktabr sanasiga qadar olingan Test of English as a Foreign Language (TOEFL iTP) va Microsoft Certified Educator (MCE) xalqaro sertifikatlari uchun ularning amal qilish muddati tugagunga qadar (muddati cheklanmagan (belgilanmagan) sertifikatlar uchun sertifikat olingan kundan boshlab uch yildan ko‘p bo‘lmagan vaqt mobaynida) umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’limga o‘qishga kirish, ishga qabul qilish hamda ustamalar belgilash bo‘yicha imtiyozlar qo‘llaniladi. Bunda, 2025-yil 3-oktabr sanasidan keyin olingan yuqoridagi sertifikatlar uchun o‘qishga kirish, ishga qabul qilish hamda ustamalar belgilash bo‘yicha imtiyozlar qo‘llanilmaydi;

5) mazkur qaror bilan tasdiqlangan Ro‘yxatning 1-bobi izoh qismi 1 – 4-bandlari barcha boblar uchun qo‘llaniladi.”.

2. 2-bobda:

3-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 3. | Cambridge English Qualifications | B1<br>Preliminary<br>(140–159) | B2<br>First<br>(160–179) | C1<br>Advanced | C2<br>Proficiency<br>(200–230) |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | (180–199) | |

”;

quyidagi mazmundagi 4[1] va 4[2]-pozitsiyalar bilan toʻldirilsin:

“

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 4[1]. | International Test of English Proficiency iTEP Academic — Plus | B1 | B2 | C1 | C2 |
| 4[2]. | Aptis ESOL Advanced | B1 | B2 | C1 | C2 |

”;

31-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 31. | Cambridge English Qualifications | | B2 First (160-179) | C1 Advanced (180-199) | C2 Proficiency (200-230) |

”;

quyidagi mazmundagi 32[1] va 32[2]-pozitsiyalar bilan toʻldirilsin:

“

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 32[1]. | Cambridge Linguaskill | | B2 | C1 | C2 |
| 32[2]. | International Test of English Proficiency iTEP Academic — Plus | | B2 | C1 | C2 |

”;

57-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 57. | Cambridge English Qualifications | B1 Preliminary (140-159) | B2 First (160-179) | C1 Advanced (180-199) | C2 Proficiency (200-230) |

”;

quyidagi mazmundagi 59[1]-pozitsiya bilan toʻldirilsin:

“

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 59[1]. | Aptis ESOL Advanced | B1 | B2 | C1 | C2 |

”;

izoh qismi chiqarib tashlansin.

3. 3-bob quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“ **3-bob. Umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, professional va oliy ta’lim tizimiga xorijiy til boʻyicha ishga qabul qilishda hamda maktabgacha, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, professional va oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarga ustama belgilashda qoʻllaniladigan xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro sertifikatlar**

**ROʻYXATI**

| T/r | Sertifikat nomi | Muvofiqlik darajalari<br>Common European Framework of Reference (CEFR) shkalasi boʻyicha | | |
|---|---|---|---|---|
| | | **B2*** | **C1** | **C2** |
| **Maktabgacha, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, professional taʼlim uchun** | | | | |
| **INGLIZ TILI** | | | | |
| 1. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| 2. | Test of English as a Foreign Language — TOEFL iBT | 72 — 94<br>Speaking 16 | 95 — 113<br>Speaking 23 | 114 — 120 |
| 3. | Test of English as a Foreign Language (TOEFL iTP) | 543<br>Listening<br>55<br>Written<br>53<br>Reading<br>55<br>Speaking | 620<br>Listening<br>62<br>Written<br>64<br>Reading<br>60<br>Speaking | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 58 | 64 | |
| 4. | International Test of English Proficiency<br><br>iTEP Academic — Plus | B2 | C1 | C2 |
| 5. | Cambridge English Qualifications | B2<br><br>First<br><br>(160-179) | C1<br><br>Advanced<br><br>(180-199) | C2<br><br>Proficiency<br><br>(200-230) |
| 6. | International English Language Testing System — IELTS (Academic) | 5.5-6.5 | 7.0-8.0 | 8.5-9.0 |
| 7. | TKT** | | | |
| | Modul 1 | | kamida 3 band | |
| | Modul 2 | | kamida 3 band | |
| | Modul 3 | | kamida 3 band | |
| 8. | Teaching English for Speakers of Other Languages (TESOL)** | | pass | |
| 9. | Teaching English as a Foreign Language (TEFL)** | | pass | |
| 10. | Teaching English as a Second Language (TESL)** | | pass | |
| 11. | Aptis ESOL for Teachers | B2 | C1 | |
| **FRANSUZ TILI** | | | | |
| 12. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| 13. | Diplôme d'Etudes en Langue Française (DELF) | B2 | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 14. | Diplôme Approfondi de Langue Française (DALF) | | C1 | C2 |
| 15. | Test de Connaissance du Français (TCF) | B2 | C1 | C2 |
| **NEMIS TILI** | | | | |
| 16. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| 17. | Goethe-Zertifikat | B2 | C1 | C2 |
| 18. | Test Deutsch als Fremdsprache (Test DAF) | TDN 3 (B2.1), TDN 4 (B2.2 — C1.1) | TDN 5 (C1.2) | |
| 19. | Deutsches Sprachdiplom (DSD I, II) | DSD II B2 | DSD II C1 | |
| 20. | TELC | Deutsch B2 | Deutsch C1 | Deutsch C2 |
| **ISPAN TILI** | | | | |
| 21. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| 22. | Diplomas de Español como Lengua Extranjera (DELE) | DELE B2 | DELE C1 | DELE C2 |
| 23. | Servicio Internacional de Evaluación de la Lengua Española (SIELE) | B2 | C1 | C2 |
| **ITALYAN TILI** | | | | |
| 24. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| **ARAB TILI** | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 25. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| 26. | AT Tanal Al Arabi | B2 | C1 | C2 |
| **XITOY TILI** | | | | |
| 27. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| 28. | Hanyu Shuiping Kaoshi<br><br>(HSK) | HSK<br><br>4 | HSK<br><br>5 | HSK<br><br>6 |
| **YAPON TILI** | | | | |
| 29. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| **KOREYS TILI** | | | | |
| 30. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| 31. | Test of Proficiency in Korean<br><br>(TOPIK II) | Level 4<br><br>150 — 189 | Level 5<br><br>190 — 229 | Level 6<br><br>230 — 300 |
| **TURK TILI** | | | | |
| 32. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| 33. | Türkçe Yeterlik Sınavı (TYS) | B2 | C1 | |
| **PUSHTU, DARIY, URDU, HINDIY, UYGʻUR, FORS tillari** | | | | |
| 34. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| **Oliy taʼlim uchun** | | | | |
| **INGLIZ TILI** | | | | |
| 1. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 2. | Test of English as a Foreign Language — TOEFL iBT | 72 — 94<br><br>Speaking 16 | 95 — 113<br><br>Speaking 23 | 114 — 120 |
| 3. | Cambridge English Qualifications | B2<br><br>First<br><br>(160-179) | C1<br><br>Advanced<br><br>(180-199) | C2<br><br>Proficiency<br><br>(200-230) |
| 4. | International English Language Testing System — IELTS (Academic) | 5.5-6.5 | 7.0-8.0 | 8.5-9.0 |
| 5. | International Test of English Proficiency<br><br>iTEP Academic — Plus | B2 | C1 | C2 |
| 6. | Aptis ESOL for Teachers | B2 | C1 | |
| 7. | Aptis ESOL Advanced | B2 | C1 | C2 |
| **FRANSUZ TILI** | | | | |
| 8. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| 9. | Diplôme d’Etudes en Langue Française (DELF) | B2 | | |
| 10. | Diplôme Approfondi de Langue Française (DALF) | | S1 | C2 |
| 11. | Test de Connaissance du Français (TCF) | B2 | C1 | C2 |
| **NEMIS TILI** | | | | |
| 12. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| 13. | Goethe-Zertifikat | B2 | C1 | C2 |
| 14. | Test Deutsch als Fremdsprache<br><br>(Test DAF) | TDN 3<br><br>(B2.1), | TDN 5<br><br>(C1.2) | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | TDN 4 (B2.2 — C1.1) | | |
| 15. | Deutsches Sprachdiplom (DSD I, II) | DSD II B2 | DSD II C1 | |
| **ISPAN TILI** | | | | |
| 16. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| 17. | Diplomas de Español como Lengua Extranjera (DELE) | DELE B2 | DELE C1 | DELE C2 |
| 18. | Servicio Internacional de Evaluación de la Lengua Española (SIELE) | B2 | C1 | C2 |
| **ITALYAN TILI** | | | | |
| 19. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| **ARAB TILI** | | | | |
| 20. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| 21. | AT Tanal Al Arabi | B2 | C1 | C2 |
| **XITOY TILI** | | | | |
| 22. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| 23. | Hanyu Shuiping Kaoshi (HSK) | HSK 4 | HSK 5 | HSK 6 |
| **YAPON TILI** | | | | |
| 24. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **KOREYS TILI** | | | | |
| 25. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| 26. | Test of Proficiency in Korean<br><br>(TOPIK II) | Level 4<br><br>150 — 189 | Level 5<br><br>190 — 229 | Level 6<br><br>230 — 300 |
| **TURK TILI** | | | | |
| 27. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |
| 28. | Türkçe Yeterlik Sınavı (TYS) | B2 | C1 | |
| **PUSHTU, DARIY, URDU, HINDIY, UYGʻUR, FORS tillari** | | | | |
| 29. | Chet tilini bilish darajasini aniqlash boʻyicha milliy sertifikat | B2 | C1 | |

Izoh:

1) ta’lim tashkilotlarida ayrim maxsus fanlardan oʻquv mashgʻulotlarini olib borayotgan pedagog xodimlarning lavozim maoshlariga belgilangan tartibda ustamalar beriladi;

2) umumiy oʻrta, oʻrta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarining kamida C1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega chet (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu, hindiy) tili yoki Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan beriladigan kamida B+ (avvalgi tizimda 80 ball yoki undan yuqori) darajadagi umumta’lim fanini bilish darajasi toʻgʻrisida sertifikatga ega fan oʻqituvchilariga (boshlangʻich ta’lim oʻqituvchilari bundan mustasno) sertifikatning amal qilish davrida navbatdagi majburiy attestatsiyada mutaxassislik fani va kasb standarti boʻyicha bilim darajasini aniqlash hamda oʻquv fani boʻyicha malaka sinovidan maksimal ball beriladi hamda ular ushbu oʻquv fani boʻyicha malaka sinovidan ozod etiladi.

Teaching Knowledge Test (TKT), Teaching English for Speakers of Other Languages (TESOL), Teaching English as a Foreign Language (TEFL), Teaching English as a Second Language (TESL) sertifikatlari xorijiy tillar oʻqituvchilarini ishga qabul qilishda inobatga olinmaydi;

3) oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarga ustama belgilashda qo‘llaniladigan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ularning mashg‘ulot olib boruvchi faniga mos bo‘lishi lozim;

4) *umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga xorijiy tillar o‘qituvchilari lavozimlariga ishga yangi qabul qilinayotgan talabgor kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi sertifikatga ega bo‘lishi lozim;

** umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglardan Teaching Knowledge Test (TKT), Teaching English for Speakers of Other Languages (TESOL), Teaching English as a Foreign Language (TEFL), Teaching English as a Second Language (TESL) sertifikatlari Common European Framework of Reference (CEFR) tizimining B2 yoki undan yuqori darajadagi sertifikat bilan birgalikda qabul qilinadi va ularga ustama belgilangan tartibda to‘lanadi.

** barcha Teaching English for Speakers of Other Languages (TESOL), Teaching English as a Foreign Language (TEFL), Teaching English as a Second Language (TESL) sertifikatlari o‘qituvchi (trener) bilan kamida 100 kontakt soat shug‘ullanishi va kamida 40 soatlik o‘qituvchi-pedagogik amaliyotini qamrab olishi, bunda amaliyot qismi instruktor tomonidan kuzatilib baholanishi zarur.”.

4. 4-bobda:

quyidagi mazmundagi $8^1$-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

| | | | |
|---|---|---|---|
| $8^1$. | IC3 Digital Literacy Certification** | 700 | Xalqaro |

”;

quyidagi mazmundagi $12^1$-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

| | | | |
|---|---|---|---|
| $12^1$. | A-Level | B | Xalqaro |

”;

quyidagi mazmundagi $13^1$-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

| | | | |
|---|---|---|---|
| $13^1$. | A-Level | B | Xalqaro |

”;

izohda:

6-banddagi “dars beruvchi pedagoglarning o‘zbek tili” degan so‘zlar “dars beruvchi boshlang‘ich ta’lim mutaxassisligiga ega pedagoglarning ona tili” degan

so‘zlar bilan almashtirilsin;

9-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin;

10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10) **IC3 Digital Literacy Certificationda har bir modul bo‘yicha (jami 3 ta modul) ko‘rsatkich 700 ball yoki undan yuqori bo‘lishi lozim.”.

5. 5-bobda:

1-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Umumta’lim fanini bilish darajasi to‘g‘risidagi milliy sertifikat | Maksimal ball:<br><br>A+, A<br><br>(86 va undan yuqori ball**),<br><br>Proporsional ball: B+, B, C+, C<br><br>(60 — 85,9 ball**),<br><br>Majburiy fan bo‘yicha belgilangan eng yuqori ball | A-Level<br><br>(Mathematics) | Maksimal ball:<br><br>**B, A, A***<br><br>Majburiy fan bo‘yicha ham belgilangan eng yuqori ball |

”;

2-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 2. | Umumta’lim fanini bilish darajasi to‘g‘risidagi milliy sertifikat | Maksimal ball:<br><br>A+, A<br><br>(86 va undan yuqori ball **),<br><br>Proporsional ball: B+, B, C+, C<br><br>(60 — 85,9 ball**) | A-Level<br><br>(Physics) | Maksimal ball:<br><br>**B, A, A*** |

”;

3-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3. | Umumtaʼlim fanini bilish darajasi toʻgʻrisidagi milliy sertifikat | Maksimal ball: A+, A (86 va undan yuqori ball **), Proporsional ball: B+, B, C+, C (60 — 85,9 ball**) | A-Level (Chemistry) | Maksimal ball: **B, A, A*** |

”;

5-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 5. | Umumtaʼlim fanini bilish darajasi toʻgʻrisidagi milliy sertifikat | Maksimal ball: A+, A (86 va undan yuqori ball **), Proporsional ball: B+, B, C+, C (60 — 85,9 ball**) | A-Level (Biology) | Maksimal ball: **B, A, A*** |

”;

izoh qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“** 2024-yil 1-martga qadar umumta’lim fanlari bo‘yicha berilgan milliy sertifikatlar uchun mazkur sertifikat olingan paytda amalda bo‘lgan imtiyoz tatbiq etiladi.”.